TALABALARDA MUSTAQIL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TRENING SAMARADORLIGINING TAJRIBA-SINOV NATIJALARI

M.M.Sobirova[1]

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mas'ul muallif: Sobirova Malika Muradovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

e-mail: sobirovamalika9528@gmail.com

Received: 11 Noyabr 2026
Accepted: 16 Noyabr 2026
Published: 21 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Sobirova, M. M. TALABALARDA MUSTAQIL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TRENING SAMARADORLIGINING TAJRIBA-SINOV NATIJALARI / M. M. Sobirova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 129–132.

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda mustaqil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixologik trening dasturining samaradorligi tajriba-sinov asosida yoritilgan. Tadqiqotda n=170 nafar talaba (nazorat guruhi – 120, tajriba guruhi – 50) ishtirok etdi. A.A.Alekseeva va L.A.Gromovaning “Tafakkur uslubini aniqlash so‘rovnomasi” hamda F.Berdingning “Oldenburg epistemik qarashlar so‘rovnomasi” natijalari Mann-Uitni U-kriteriysi yordamida tahlil qilindi. Tajriba guruhida sintezatorlik, idealistik, analizatorlik va realistik tafakkur uslublari, shuningdek, bilimning tuzilishi, o‘rganish qobiliyati, bilim manbasi va o‘rganish tezligi haqidagi epistemik qarashlar ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: mustaqil tafakkur, tafakkur uslubi, epistemik qarashlar, psixologik trening, talaba shaxsi, tanqidiy fikrlash, tajriba-sinov.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ТРЕНИНГА, НАПРАВЛЕННОГО НА РАЗВИТИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА

Аннотация. В статье на основе экспериментального исследования рассматривается эффективность специальной психологической тренинговой программы, направленной на развитие самостоятельного мышления студентов. В исследовании приняли участие 170 студентов (контрольная группа – 120, экспериментальная группа – 50). Результаты, полученные с помощью опросника «Определение стиля мышления» А.А.Алексеевой и Л.А.Громовой и Ольденбургского опросника эпистемических убеждений Ф.Бердинга, обработаны по U-критерию Манна–Уитни. В экспериментальной группе выявлены статистически достоверно более высокие показатели синтетического, идеалистического, аналитического и реалистического стилей мышления, а также эпистемических убеждений о структуре знания, способности к обучению, источнике знания и скорости обучения.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, стиль мышления, эпистемические убеждения, психологический тренинг, личность студента, критическое мышление, эксперимент.

EFFECTIVENESS OF A PSYCHOLOGICAL TRAINING AIMED AT DEVELOPING INDEPENDENT THINKING IN STUDENTS: EXPERIMENTAL RESULTS

Abstract. This article presents an experimental evaluation of a psychological training programme designed to develop independent thinking in university students. The sample comprised 170 students (control group – 120, experimental group – 50). Data obtained through the Thinking Style Questionnaire by A.A. Alekseeva and L.A. Gromova and the Oldenburg Epistemic Beliefs Questionnaire by F. Berding were analysed with the Mann–Whitney U test. The experimental group showed statistically significantly higher scores on the synthesist, idealist, analyst and realist thinking styles, as well as on epistemic beliefs about the structure of knowledge, learning ability, source of knowledge and speed of learning.

Keywords: independent thinking, thinking style, epistemic beliefs, psychological training, student personality, critical thinking, experiment.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan va tashabbuskor yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, axborot oqimi, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar kengayib borayotgan sharoitda mutaxassisning axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash hamda asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan mustaqil tafakkurni rivojlantirish oliy ta’lim tizimining dolzarb psixologik-pedagogik vazifalaridan biri sanaladi.

Mazkur ustuvorlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasi [1] hamda PF–158-son Farmon bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida [2] belgilangan inson kapitalini rivojlantirish va zamonaviy fikrlaydigan kadrlar tayyorlash vazifalarida ham o‘z ifodasini

topgan. Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida yoshlarning mustaqil fikrlashi va intellektual salohiyatini yuksaltirish muhimligi ta’kidlangan [5]. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida talabalarning mustaqil ta’limi va ijodiy faolligini oshirish [3], Vazirlar Mahkamasining 577-son qarorida esa oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni takomillashtirish vazifalari belgilangan [4].

Biroq yaratilgan ta’limiy va tashkiliy imkoniyatlar talabalarda mustaqil tafakkurning o‘z-o‘zidan shakllanishini kafolatlamaydi. Xususan, tayyor bilimlarga tayanish, axborot manbalarini tanqidiy baholamaslik va murakkab muammolarni mustaqil tahlil qilishdagi qiyinchiliklar maxsus psixologik treninglarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi talabalarda mustaqil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening samaradorligini tafakkur uslublari va epistemik qarashlar ko‘rsatkichlari asosida empirik baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil tafakkur muammosi xorijiy psixologiyada, asosan, refleksiv va tanqidiy fikrlash nazariyalari doirasida tadqiq etilgan. Jumladan, J. Dyui tafakkurni muammoli vaziyatlarda bilimlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqishga asoslangan refleksiv faoliyat sifatida izohlagan [11]. D. Kun mustaqil fikrlashni dalillarni taqqoslash va shaxsiy pozitsiyani asoslash qobiliyati bilan bog‘lagan [13], B. Zimmerman esa o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish nazariyasida maqsad qo‘yish, o‘quv strategiyalarini tanlash va faoliyat natijalarini baholashni mustaqil bilish faoliyatining muhim shartlari sifatida asoslagan [15].

Tafakkurning individual xususiyatlarini o‘rgangan A. Harrison va R. Bramson uning sintezator, idealist, pragmatist, analizator va realist uslublarini ajratib, har birining axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilishdagi o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatgan [12]. Mazkur yondashuv A.A. Alekseeva va L.A. Gromova tomonidan moslashtirilib, psixologik diagnostika amaliyotida qo‘llanilgan. Tadqiqotimizda ushbu metodikaning sintezatorlik, idealistik, analizatorlik va realistik shkalalari asosiy tahlil mezonlari sifatida belgilandi.

Mustaqil tafakkurning rivojlanishi shaxsning bilim va bilish jarayoniga munosabatini ifodalovchi epistemik qarashlar bilan ham uzviy bog‘liq. M. Schommer epistemik qarashlarni bilimning tuzilishi, aniqligi, manbasi, o‘rganish tezligi va o‘rganish qobiliyati haqidagi e’tiqodlar tizimi sifatida talqin qilgan [14]. Ushbu nazariy yondashuv asosida F. Berding va hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan Oldenburg epistemik qarashlar so‘rovnomasi mazkur xususiyatlarni empirik baholash imkonini beradi.

MDH psixologiyasida ham tafakkurning mustaqilligi va rivojlanish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. L.S. Vygotskiy tafakkur rivojlanishida ijtimoiy muhit va hamkorlikning ahamiyatini asoslagan [9], S.L. Rubinshteyn uni muammoli vaziyatda tahlil va sintez orqali amalga oshadigan faol jarayon sifatida izohlagan [10]. A.V. Brushlinskiy esa tafakkurning subyektlik xususiyatlarini, jumladan, shaxsning mustaqilligi va tashabbuskorligini muhim omillar sifatida yoritgan [8].

O‘zbek psixologiyasida E.G‘. G‘oziyev tafakkur madaniyati va bilish faolligini rivojlantirish [7], M.G. Davletshin esa ta’lim jarayonida ijodiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishning psixologik shartlarini o‘rganishga hissa qo‘shgan [6].

Shunday qilib, xorijiy, MDH va o‘zbek psixologiyasida mustaqil tafakkurning nazariy asoslari hamda alohida tarkibiy xususiyatlari yoritilgan bo‘lsa-da, tafakkur uslublari va epistemik qarashlarni birgalikda rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening samaradorligini empirik baholash masalasi qo‘shimcha tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu yo‘nalishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Tadqiqotda jami 170 nafar talaba ishtirok etib, ular nazorat (n=120) va tajriba (n=50) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida mustaqil tafakkurni rivojlantirish maqsadida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, munozara, tanqidiy o‘qish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash, refleksiv mashqlar va guruhiy topshiriqlarni qamrab olgan mualliflik psixologik trening dasturi amalga oshirildi.

Tadqiqotda tafakkur uslublarini aniqlash uchun A.A. Alekseeva va L.A. Gromovaning “Tafakkur uslubini aniqlash so‘rovnomasi” [12], epistemik qarashlarni baholash uchun esa F. Berdingning “Oldenburg epistemik qarashlar so‘rovnomasi” [14] qo‘llanildi. Birinchi metodika orqali sintezatorlik, idealistik, analizatorlik va realistik tafakkur uslublari, ikkinchisi yordamida esa bilimning tuzilishi, o‘rganish qobiliyati/nazorat, bilim manbasi va o‘rganish tezligi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Olingan ma’lumotlar SPSS dasturida matematik-statistik qayta ishlanib, guruhlararo farqlar Mann–Uitni U-mezoni yordamida aniqlandi. Natijalarning statistik ahamiyatliligi $p<0,05$ va $p<0,01$ mezonlari asosida baholandi.

Natijalar tahlili va muhokama. Psixologik trening samaradorligini baholash maqsadida tajriba (n=50) va nazorat (n=120) guruhlarining natijalari ikki metodika asosida Mann–Uitni U-mezoni yordamida taqqoslandi. Birinchi metodika tafakkur uslublarini, ikkinchisi esa bilim va bilish jarayoniga oid epistemik qarashlarni baholashga xizmat qildi.

1-jadval natijalariga ko‘ra, tafakkur uslublarining barcha shkalalarida tajriba guruhining o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari nazorat guruhidan yuqori bo‘lib, farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

1-jadval.

A.A.Alekseeva va L.A.Gromovalar tomonidan ishlab chiqilgan «Tafakkur uslubini aniqlash so‘rovnomasi» orqali olingan tajriba va nazorat guruhlari natijalar tahlili (n=170)

№	Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	N	O‘rtacharang	U	p
1	Sintezatorlik	Nazorat guruhi	120	78,21	2125	0,003**
		Tajriba guruhi	50	103,00		
		Jami:	170			

№	Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	N	O‘rtacharang	U	p
2	Idealistik	Nazorat guruhi	120	79,46	2275	0,013*
		Tajriba guruhi	50	100,00		
		Jami:	170			
3	Analizatorlik	Nazorat guruhi	120	77,38	2025	0,001**
		Tajriba guruhi	50	105,00		
		Jami:	170			
4	Realistik	Nazorat guruhi	120	80,29	2375	0,033*
		Tajriba guruhi	50	98,00		
		Jami:	170			

Izoh: **p<0,01; *p<0,05.

Sintezatorlik shkalasida tajriba guruhining o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 103,00, nazorat guruhiniki 78,21 ni tashkil etdi (U=2125; p=0,003). Bu treningdagi munozara va turli nuqtai nazarlarni birlashtirish mashqlari talabalarning qarama-qarshi g‘oyalardan yaxlit xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirganini ko‘rsatadi.

Idealistik uslub bo‘yicha tajriba guruhida 100,00, nazorat guruhida 79,46 o‘rtacha rang qayd etildi (U=2275; p=0,013). Natija refleksiv mashqlar orqali talabalarning o‘z qarashlari, qadriyatlari va maqsadlariga tayangan holda fikr yuritish imkoniyatlari mustahkamlanganini anglatadi.

Analizatorlik shkalasida eng yuqori statistik farq kuzatildi: tajriba guruhida 105,00, nazorat guruhida 77,38 (U=2025; p=0,001). Bu muammoli topshiriqlar va dalillarni baholash mashqlari natijasida axborotni tizimli tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va xulosalarni asoslash ko‘nikmalari rivojlanganini ko‘rsatadi.

Realistik uslub bo‘yicha ham tajriba guruhi (98,00) nazorat guruhidan (80,29) yuqori natija qayd etdi (U=2375; p=0,033). Mazkur farq talabalarning fikrlarini aniq faktlar va amaliy natijalarga tayangan holda shakllantirish imkoniyatlari oshganini bildiradi.

Effekt kattaligi ham trening ta’sirining eng kuchli analizatorlik (r≈0,26) va sintezatorlik (r≈0,23) shkalalarida namoyon bo‘lganini ko‘rsatdi. Idealistik (r≈0,19) va realistik (r≈0,16) ko‘rsatkichlarda esa ta’sir nisbatan kichikroq bo‘ldi.

2-jadvalda F. Berdingning “Oldenburg epistemik qarashlar so‘rovnomasi” bo‘yicha natijalar keltirilgan. Tahlil barcha shkalalarda tajriba guruhining nazorat guruhiga nisbatan statistik ahamiyatli ustunligini ko‘rsatdi.

2-jadval.

F. Berdingning «Oldenburg epistemik qarashlar so‘rovnomasi» orqali olingan tajriba va nazorat guruhlari natijalar tahlili (n=170)

№	Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	N	O‘rtacharang	U	p
1	Bilimning tuzilishi	Nazorat guruhi	120	78,21	2125	0,003**
		Tajriba guruhi	50	103,00		
		Jami:	170			
2	O‘rganish qobiliyati / nazorat	Nazorat guruhi	120	79,46	2275	0,013*
		Tajriba guruhi	50	100,00		
		Jami:	170			
3	Bilim manbasi	Nazorat guruhi	120	77,38	2025	0,001**
		Tajriba guruhi	50	105,00		
		Jami:	170			
4	O‘rganish tezligi	Nazorat guruhi	120	80,29	2375	0,033*
		Tajriba guruhi	50	98,00		
		Jami:	170			

Izoh: **p<0,01; *p<0,05.

Bilimning tuzilishi shkalasida tajriba guruhining o‘rtacha rangi 103,00, nazorat guruhiniki 78,21 ni tashkil etdi (U=2125; p=0,003). Bu talabalarning bilimni alohida faktlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida anglashga moyilligi kuchayganini ko‘rsatadi.

O‘rganish qobiliyati/nazorat shkalasida tajriba guruhida 100,00, nazorat guruhida 79,46 o‘rtacha rang qayd etildi (U=2275; p=0,013). Natija o‘rganish qobiliyatini o‘zgarmas xususiyat emas, balki muntazam mashq va sa’y-harakat orqali rivojlantiriladigan jarayon sifatida qabul qilish kuchayganini anglatadi. Bu Zimmerman ta’kidlagan o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish tamoyillari bilan uyg‘un [15].

Bilim manbasi shkalasida eng yuqori statistik farq aniqlandi: tajriba guruhida 105,00, nazorat guruhida 77,38 (U=2025; p=0,001). Bu talabalarning bilimni faqat tashqi manbalardan tayyor holda qabul qilish emas, balki mustaqil

mulohaza, dalillarni taqqoslash va tanqidiy baholash orqali o‘zlashtirishga moyilligi ortganini ko‘rsatadi. Mazkur natija 1-jadvaldagi analizatorlik ko‘rsatkichlari bilan hamohangdir.

O‘rganish tezligi shkalasida tajriba guruhining o‘rtacha rangi 98,00, nazorat guruhiniki 80,29 ni tashkil etdi (U=2375; p=0,033). Bu o‘rganishni muntazam mehnat va izchil bilish faoliyatini talab qiladigan jarayon sifatida anglash kuchayganini bildiradi.

Umuman, ikki metodika natijalari treningdan so‘ng tajriba guruhida tafakkur uslublari va epistemik qarashlar bo‘yicha ijobiy farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, analizatorlik va bilim manbasi ko‘rsatkichlaridagi yuqori statistik farqlar talabalarning axborotga tanqidiy yondashishi va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Shu bilan birga, natijalarni umumlashtirishda tajriba guruhining nisbatan kichikligi va treningdan oldingi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash zarurligini hisobga olish lozim.

Xulosa va amaliy tavsiyalar

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari psixologik treningda ishtirok etgan talabalarda tafakkur uslublari va epistemik qarashlar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan statistik ahamiyatli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, tafakkur uslublari orasida analizatorlik va sintezatorlik, epistemik qarashlarda esa bilim manbasi ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori natijalar bilan ajralib turdi. Bu holat trening mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan tahlil, munozara, refleksiya va muammoli topshiriqlarning talabalarda mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyatini namoyon etadi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarining birinchi bosqich talabalarida mustaqil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv psixologik treninglarni joriy etish, ta’lim jarayonida muammoli topshiriqlar, keys-tahlil, munozara hamda dalillarni tanqidiy baholash mashqlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati faoliyatida talabalarning tafakkur uslublari va epistemik qarashlarini diagnostika qilish hamda muntazam monitoringini yo‘lga qo‘yish, trening samaradorligini esa turli ta’lim yo‘nalishlari va uzoq muddatli kuzatuvlar asosida yanada chuqur o‘rganish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga psixologik xizmat ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

[5] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

[6] Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 184 b.

[7] G‘oziyev E.G‘. Oliy maktab psixologiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2010. – 312 b.

[8] Брушлинский А.В. Психология мышления и проблемного обучения. – Москва: Знание, 1983. – 96 с.

[9] Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.

[10] Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 720 с.

[11] Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath, 1910. – 228 p.

[12] Harrison A.F., Bramson R.M. Styles of Thinking: Strategies for Asking Questions, Making Decisions, and Solving Problems. – New York: Anchor Press/Doubleday, 1982. – 232 p.

[13] Kuhn D. A developmental model of critical thinking // Educational Researcher. – 1999. – Vol. 28(2). – P. 16–46.

[14] Schommer M. Effects of beliefs about the nature of knowledge on comprehension // Journal of Educational Psychology. – 1990. – Vol. 82(3). – P. 498–504.

[15] Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41(2). – P. 64–70.